

JANR BADIY TADRIJI VA O‘ZBEK QISSACHILIGI AN’ANALARI

Eshnazarov Anvarbek Adambayevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası assistent o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Istiqlol davri qissachiligi XX asr o‘zbek nasri erishgan yutuqlar ta’sirida, ayni chog‘da zamonaviy jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tutash holda rivojlanmoqda. Natijada jahon adabiyotining ilg‘or tamoyillari o‘zbek adabiyotida, xususan, qissachilikda ham namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan asrning saksoninchi yillaridayoq ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda yuz bera boshlagan demokratik yangilanishlar badiiy tafakkurda ham o‘z aks-sadosini bera boshladi. Bu davrda sho‘ro davridan farq qiluvchi yangicha badiiy-estetik idealni aks ettiruvchi asarlar yaratila boshlandi. Ushbu maqolada, janr badiiy tadriji va o‘zbek qissachiligi an’analari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Qissa, janr, tadriji, badiiy, an’analar, ijtimoiy hayot, obraz.

“Oydinda yurgan odamlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Sho‘rodan qolgan odamlar”, “Momo yer qo‘shig‘i”, “Qora kitob”, “Eski arava” singari qator qissalarda ana shunday yangilanish tamoyillarini his qilamiz. Ayni xususiyatlar XX asrning so‘nggi choragidan boshlangan milliy tafakkur rivojidadagi yangilanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda sodir bo‘ldi. Aytish joizki, qissachilikda poetik izlanishlar istiqlol davrida yanada kengroq namoyon bo‘la boshladi. Insonni ijtimoiy hayotning bir namoyandasi sifatida emas, balki o‘ziga xos bo‘lgan ma’naviy olam egasi sifatida kashf etishga e’tibor kuchaydi. Bunda realistik tasvir bilan birga yangi-yangi tasvir usullariga, jumladan tasvirda shartlilikka, ramziylikka katta e’tibor berila boshlandi. Iste’dodli yozuvchi Sobir O‘narning “Chambilbelning oydalasi” qissasi ham ana shu jihatdan xarakterlidir.

Qissada o‘z e‘tiqodida sobitlik, o‘ktamlilik, oriyat tuyg‘usi bilan yashash umrining mazmuniga aylangan Otaqul Qirg‘iy obrazi bosh qahramon. Asar voqealari qishloqda ro‘y beradi. Yozuvchi Qirg‘iy obraziga xos yetakchi xususiyatlarni kitobxonga qissa boshidanoq tanitadi. Asarda cho‘rtkesar, Qirg‘iy laqabiga monand tinib-tinchimas, ot ustida qirg‘iymisol tik o‘tirib, yeldirib, ne-ne manzillarni zumda kezib chiquvchi, o‘ziga xos fe‘l-atvor egasi sifatida tasvirlangan bu cholni el ham o‘ziga yarasha suyar edi. Aytganini qildiradigan, so‘zi – so‘z, g‘irromligi yo‘q, nafs uchun badnom bo‘ladiganlardan emasligini el yaxshi bilardi. Yaxshi bilganidan uning so‘zini ikki qilmasdi. Elga oqsoqol bo‘lish hazilakam ish emas. Ana shunday odam bir kechada dom-daraksiz yo‘qoladi.

Sirli voqealar silsilasi ilmiy tadqiqot instituti xodimi “men”ning avariya uchrab o‘lishi, xotiralari, qayta tirilishi bilan bog‘liq xodisalarga ulanib ketadi. Uning “do‘sti” Adbumalik qiyofasi, institut direktori Vaqqosovichning riyokor chehrasi ortidagi tuban “olami” “men”ning xayollari orqali ochib beriladi. Do‘stining sotqinligi tufayli boshiga tushgan musibatlar Qirg‘iy bovanikiga shaklan o‘xshash edi. Uni ham ishongan hamsoyasi aldab, tunda qishloq chetiga chorlab, qul qilib sotib yuborgan. Qirg‘iy tirik murdaga aylangan, qafasda qolgan. Voqealar oqimiga endi “Go‘ro‘g‘li” dostonida keltirilgan voqealar kirib keladi. Ayni shu o‘rindan boshlab qissada realistik tasvir bilan xayoliy, folklor asarlarida uchraydigan, xalq qaxramonlari tasvirlangan asarlarga xos sirli, sehrli tasvirlar, sarguzasht janriga xos bo‘lgan voqea-xodisalar silsilasi uyg‘unlashib ketadi. Garchi qissaning yetakchi mavzusi real voqelik bilan, hayot haqiqati bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa-da, uning ifodasidagi turli-tuman tasvir usullaridan foydalanish uning o‘qilishliligini, poetik yangiligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, Ravshanbekning ko‘r bo‘lib, Shayxlar xonaqosida qolishi, Hiloloy yotgan qabrdan chiqib, echkini emib, yana go‘rga kirib g‘oyib bo‘lgan bolakayni tog‘asi Hasanboy ushlab, uyiga olib borishi... Bu voqealarning barchasi bir nuqtada kesishadi, ya‘ni bir konsepsiya atrofiga yig‘iladi. Inson bolasi odamlar bilan tirik. Uning hayotda orttiradigan obro‘si ham odamlar, ya‘ni jamoa tufaylidir. Yolg‘izlikda, tutqunlikda Qirg‘iy bovaday odam qulga aylandi, qaddi bukildi, hayotga bo‘lgan ishonchi sindi.

“Men” esa hayot sinovlaridan o‘tib, “qayta tiriladi”, odamlarni suyganidan, ularga yomonlik qilolmaganidan, hatto, “raqiblari”dan o‘ch olishga qasd qilolmaganidan, Chambilbel dalalaridan ruh-kuch olganidan, ona zaminga, odamlarga, yaqinlariga qattiq bog‘langanidan, hatto “u dunyodan” qaytib keladi.

Asarda ifodalangan sinkretik tasvir – real hayotiy voqealar bilan xayoliy olam, xalq dostonlari motivlarining bu tarzda uyg‘unlashib ketishi shunchaki asar shaklini, ifoda usulini yangilash niyatida qilingan emas. Ushbu tasvirlar fonida asarning ma’no-mazmuni qatida yashiringan g‘oyaviy-estetik maqsad, ijodkor ideali mujassam. Qissada insonning botiniy olami, uning nafaqat ijtimoiy, balki ruhiy olami, tiriklik mohiyati o‘z ifodasini topgan. Asardagi poetik yangilanishlar shu jihati bilan ham qimmatlidir. Tog‘ay Murodning “Momo yer qo‘shig‘i” qissasida esa buning aksi, qaysiki, o‘zligidan, o‘z ona yeridan, qondoshlaridan ruhan uzoqlashib, begonaga aylangan inson taqdiri-fojeasi tasvirlangan. Ushbu qissa adibning boshqa asarlaridan bir muncha farq qiladi. Unda real hayot hodisalari, Denov qishloqlaridagi o‘zbekona turmush tarzi, urf-odatlar, milliy o‘ziga xoslik samimiyat ila chizib berilgan. Asarda sho‘ro davri fojealari o‘ziga xos xarakterli hodisalar tasviri orqali fosh etiladi.

Yozuvchi sho‘ro armiyasida xizmat qilib kelgan serjant Orziqulov obrazi orqali milliy zamindan, millati, o‘zligi, tili, e’tiqodidan uzoqlashib, yotlashgan inson qiyofasini gavdalantiradi. O‘zinikilar ichida “begona-yot”ga aylangan, o‘z oilasi, yaqinlari, qishlog‘i, yurtiga begona bo‘lib qolgan yigit fojeasi iztirobli tarzda ifoda qilingan bo‘lib, dardli kuyday vujudimizni zabt etadi. Bu fojea sabablari o‘tgan asrning istibdod iskanjasidagi muhitiga borib taqalganligini tushunib yetamiz. Millatlarni tilidan, dinidan, o‘zligidan ayirishga xizmat qilgan siyosatning mudhish oqibatlari qanday dahshatli kechishini dildan anglab yetamiz. Asarda askarlikdan “Serjant Orziqulov” bo‘lib qaytgan o‘g‘ilni ota qanday qayta tarbiyalashiga guvoh bo‘lamiz.

Asarning keyingi qismlarida ana shu serjantning o‘g‘li, ya’ni avlodi tasvirlanadi. Tursunqulning shaharga o‘qishga ketishi, u yerdan ajabtovur qiyofada: g‘alati kiyimlarda, sochini o‘stirib, og‘zida papiros tishlab, palovni qoshiqda yeydigan bo‘lib

qaytishi tasvirlanadi. U o‘z ismi-sharifidan, o‘zligidan or qiladi. Ismini o‘zgartirib Pahlavon Daho deb ataydi. Barchadan o‘zini olib qochadi, o‘zini daho deb biladi. Qissada sho‘ro davri fojealari “Daho”ning barchadan o‘zini katta olib, begonasirab, ikki farzandi bilan ayolini, ota-onasini tashlab qishlog‘idan ketib qolishi, yillar davomida ijarada yashab, go‘yo “zo‘r she‘rlar” bitishi, iste‘dodlarga hasad ko‘zi bilan qarab, ig‘volar to‘qishi, hatto ko‘z ochib ko‘rgani, pokiza ayoliga ham tuhmat qilishi, bora-bora qarindosh-urug‘laridan uzoqlashib begonalashib borishi zo‘r mahorat bilan ifoda etilgan. Xalqimiz hayotining fojiali manzaralarini millat fojeasi tarzida badiiy ifodalash tendensiyasi 80-90 yillar o‘zbek nasrida unib o‘sdi. Chinakam iste‘dod sohiblari mafkuraviy kishan qobig‘ini yorib chiqishga qodir asarlar yaratdilar, ayni tendensiya mustaqillik davri nasrida davom etdi. Ijodkorlar qullikka, uning asoratiga qarshi isyon ruhidagi asarlari bilan tafakkurga yangilanish ruhini olib kirdilar. Tog‘ay Murod asarlarini ana shunday namunalar sarasi deyish mumkin. Milliy tafakkurdagi yangilanishlar ta‘sirida o‘zbek qissachiligida hayot hodisalari va inson shaxsiga yondashuv tamoyillari ham o‘zgardi, yangi shakllarda namoyon bo‘la boshladi. Qator qissalarda turli davrlar osha o‘zligidan, imon-e‘tiqodidan ayrilmagan, maslagiga sodiq, mard insonlar obrazlarini uchratamiz. Ayni chog‘da mafkuraviy tazyiqlar ostida “zamonasozlik”ka ruju qo‘ygan, e‘tiqodidan yuz o‘g‘irgan, aldamchi va zo‘ravon mafkura maddohiga, xizmatkoriga aylangan kimsalarga duch kelamiz. Bunday obrazlarga xos riyokorlik butun dahshati bilan tasvirlanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek qissalarida millatning o‘ziga xos tabiati, betakror olami, ko‘ngil kechmishlariyu tuyg‘ularini aks ettirishga intilish muayyan estetik tamoyilga aylanganligini, bunday ijobiy izlanishlar esa qissachilikka ham sezilarli o‘sish-o‘zgarishlar olib kirayotganligiga zamin bo‘lib xizmat qilayotganligini kuzatish mumkin. Biz tahlilga tortgan asarlar nafaqat epik tafakkurni u yoki bu jihatdan yangilamoqda, balki adabiy hayotda yangi tendensiyalar, oqimlar va yo‘nalishlarning vujudga kelishiga ham negiz bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada, ijtimoiy-ma‘naviy va badiiy estetik tafakkur taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi, fan. 2008.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslar va mezonlari. Fan. 2004.
3. Karimov N va boshq. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. O‘qituvchi, 1999yil.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘zbekiston, 2002.
5. Qo‘shjonov M. O‘zbekning o‘zligi. Ma’naviyat, 2021.

